ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTON O‘LKASIGA AHOLINI KO‘CHIRISH SIYOSATI

I.M. Xaydarov
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti“Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” kafedrasi professori, tarix fanlari doktori (DSc)
izzatillakhon@gmail.com

Ravshanova Zebo Abdujalil qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, “Sharq mamlakatlari tarixi” yo‘nalishi 2-kurs talabasi.
ravshanovazebo18@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.20047311

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o‘lkasida amalga oshirilgan aholi ko‘chirish siyosatining maqsadlari, bosqichlari va oqibatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda imperiyaning hududda o‘z ijtimoiy-siyosiy tayanchini yaratish, mahalliy aholini iqtisodiy siqib chiqarish harakatlari arxiv ma’lumotlari asosida yoritilgan.
Kalit so‘zlar. Turkiston, Rossiya imperiyasi, ko‘chirish siyosati, mustamlakachilik, demografiya, rus dehqonlari, ijtimoiy tayanch, ma’muriy boshqaruv.

THE RESETTLEMENT POLICY OF THE RUSSIAN EMPIRE IN THE TURKISTAN REGION

Abstract. This article analyzes the objectives, stages, and consequences of the resettlement policy implemented by the Russian Empire in the Turkestan region during the second half of the 19th and early 20th centuries. Based on archival data, alter its demographic composition, and economically displace the indigenous population through the confiscation of fertile lands.
Keywords. Turkestan, Russian Empire, resettlement policy, colonialism, agrarian reforms, Russian peasants, social base, administrative governance.

ПЕРЕСЕЛЕНЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ

Аннотация. В данной статье анализируются цели, этапы и последствия переселенческой политики, проводившейся Российской империей в Туркестанском крае во второй половине XIX – начале XX вв. На основе архивных данных в исследовании освещаются усилия империи по созданию своей социально-политической опоры в регионе и меры по экономическому вытеснению местного населения.
Ключевые слова. Туркестан, Российская империя, переселенческая политика, колониализм, демография, русские крестьяне, социальная опора, административное управление.

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmi Markaziy Osiyo xalqlari tarixi uchun tub burilish davri bo‘ldi. Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonning bosib olinishi nafaqat harbiy-siyosiy istilo, balki mintaqaning asriy ijtimoiy-iqtisodiy poydevorini qayta qurishga qaratilgan keng ko‘lamli mustamlaka loyihasining boshlanishi edi. Imperiya ma’muriyati o‘z hukmronligini faqatgina harbiy garnizonlar va ma’muriy apparat orqali uzoq muddat ushlab tura olmasligini yaxshi

anglar edi. Shu sababli, Turkistonni Rossiyaning ajralmas qismiga aylantirishning eng samarali vositasi sifatida ko‘chirish siyosati tanlandi.

Ushbu siyosatning zamirida bir necha o‘n yilliklar davomida pishib yetilgan murakkab geosiyosiy va ijtimoiy omillar yotadi. Rossiya markaziy guberniyalarida 1861-yilgi krepostnoylik huquqining bekor qilinishi kutilgan iqtisodiy farovonlikni keltirmadi. Aksincha, markazda “yer ochligi” muammosi keskinlashib, dehqonlar o‘rtasida norozilik va ijtimoiy portlash xavfi kuchaydi. Chor hukumati uchun Turkiston o‘lkasi ushbu ichki ziddiyatlarni bartaraf etuvchi “xavfsizlik klapani” vazifasini o‘tashi kerak edi. Ya’ni, norozi va yersiz dehqonlar oqimini chekka o‘lkalarga yo‘naltirish orqali markazda tinchlik saqlanishi, chekkada esa imperiyaning ishonchli ijtimoiy tayanchi yaratilishi ko‘zda tutilgan edi.

Turkistonga aholini ko‘chirish jarayoni tizimli ravishda uchta asosiy bosqichga bo‘lindi. Birinchi bosqichda (XIX asr 60-80-yillari) ko‘chish asosan stixiyali harakterga ega bo‘lib, asosan harbiy-kazaklar va dastlabki rus dehqonlari Ettisuv va Sirdaryo viloyatlariga joylashtirildi. Ikkinchi bosqich 1891-yildagi “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risida”gi yangi Nizomning qabul qilinishi bilan bog‘liq bo‘lib, u ko‘chirish jarayonini qonuniy va ma’muriy jihatdan tartibga soldi. Uchinchi va eng tajovuzkor bosqich esa 1906-yildan keyingi Stolipin agrar islohotlari davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrda “Ko‘chirish boshqarmasi” tashkil etilib, aholini ko‘chirish davlatning eng ustuvor strategik vazifasiga aylandi.

Biroq, bu siyosatning eng ziddiyatli va fojiali jihati yer masalasi bilan bog‘liq edi. Imperiya ma’muriyati “bo‘sh yotgan yerlar” degan soxta tushunchani o‘ylab topdi. Aslida, mahalliy aholi — o‘zbek, qozoq, qirg‘iz va tojik dehqonlari asrlar davomida foydalanib kelgan yaylovlar, lalmi va hatto obikor yerlar “ortiqcha” deb e’lon qilindi va davlat fondiga olib qo‘yildi. Bu yerlar keyinchalik ko‘chirib keltirilgan rus va ukrain dehqonlariga imtiyozli shartlarda bo‘lib berildi. Bunday diskriminatsion yondashuv mintaqaning asriy ekologik va xo‘jalik muvozanatini buzib yubordi.

Mustamlaka ma’muriyati bu siyosatni “madaniyat yoyish” va ‘bo‘sh yerlarni o‘zlashtirish” niqobi ostida olib borgan bo‘lsa-da, amalda bu jarayon etnik muhandislikning bir ko‘rinishi edi. Maqsad — o‘lkada rus elementini ko‘paytirish orqali mahalliy aholining milliy birlashuviga yo‘l qo‘ymaslik va Turkistonni imperiya sanoati uchun arzon xomashyo (paxta) yetkazib beruvchi hamda tayyor mahsulotlar sotiladigan bozorga aylantirish edi.

Adabiyotlar sharhi. Rossiya imperiyasining Turkistondagi ko‘chirish siyosati va mustamlakachilik faoliyatini o‘rganish tarixshunoslikda muhim o‘rin tutadi. Ushbu mavzuning turli jihatlari mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan keng tahlil etilgan. Xususan, H. Sodiqov, R. Shamsutdinov, P. Ravshanov va Q. Usmonovlar hammuallifligidagi “Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida” asari o‘lkaning bosib olinishi va mustamlaka asoratiga tushishi jarayonlarini yaxlit holda yoritib beradi. Mualliflar imperiyaning iqtisodiy manfaatlarini va yer-suv islohotlari orqali mahalliy aholini siqib chiqarish mexanizmlarini atroflicha tahlil qilganlar.

Mavzuning siyosiy va mafkuraviy jihatlari F. Isxakovning “Национальная политика царизма в Туркестане”[1] (Turkistonda chorizmning milliy siyosati) asarida o‘z aksini topgan. Tadqiqotchi imperiyaning milliy va diniy masalalardagi yondashuvlarini hamda aholini ko‘chirish orqali mintaqaning demografik qiyofasini o‘zgartirishga qaratilgan strategik maqsadlarini ochib beradi.

N. Abdurahimovaning “Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида”[2] nomli tadqiqoti mustamlakachilikning ma’muriy-boshqaruv tizimiga e’tibor qaratadi. Unda ko‘chirish

[1] Исхаков Ф. Националная политика царизма в Туркестане (1867-1917 гг)ю . –Ташкент ART FLEX, 2009
[2] Абдураҳимова Н. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Тошкент. Академия. 2002

idoralarining tashkil etilishi va bu idoralarning mahalliy dehqonlar yerlarini musodara qilishdagi roli arxiv ma'lumotlari asosida isbotlangan.

Mustamlakachilikka nisbatan xalqning munosabati va qarshilik harakatlari H. Ziyoyevning "Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash" asarida chuqur o'rganilgan. Muallif aholini ko'chirish siyosatini nafaqat iqtisodiy chora, balki xalqning ozodlik kurashini zaiflashtirishga qaratilgan siyosiy bosim sifatida baholaydi.

Azamat Ziyoning "O'zbek davlatchiligi tarixi' asari esa mustamlakachilik davrigacha bo'lgan milliy davlatchilik an'analarini tahlil qilish orqali, Rossiya bosqinidan keyin bu tizimning yemirilishi va o'rniga o'rnatilgan begona boshqaruvning salbiy oqibatlarini taqqoslash imkonini beradi. Mazkur adabiyotlar majmuasi Rossiya imperiyasining Turkistondagi ko'chirish siyosati o'lka ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tub burilish yasagan mustamlakachilik quroli bo'lganini ko'rsatadi.

Natijalar. Shuning uchun ham Turkiston viloyati tashkil qilinishidan ilgari kazaklar bu hududlarda 14 stansiyani barpo etishdi hamda Yettisuv kazaklarining qo'shinini shakllantirish faol olib borildi. G'arbiy Sibir general gubernatori Dyugamel 1864-yilda "Yangi bosib olingan Chuorti o'lkasida rus poseleniyalarini joriy qilish zaruriyati haqida"gi loyihani imperiya hukumatiga taqdim etib, bu yerga ko'chishga rozi bo'lgan rus dehqonlarini keltirishni taklif qilgan edi. Biroq u vaqtda yangi hududlarni zabt etish va Rossiya imperiyasining harbiy hukmronligini mustahkamlash maqsadlari ustuvor bo'lgani sababli imperiya Harbiy vaziri Dyugamelning taklifini rad etib, Chuorti o'lkasida faqat Sibir yoki Orenburg qo'shinining kazaklarini joylashtnrishni afzal ko'rdi. Shuning uchun 1867-yilgacha, ya'ni Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilguncha, bo'lajak yettisuv viloyati (Chuorti o'lkasi)ning hududiga Rossiyadan ko'chib kelganlarning ko'pchiligini kazaklar tashkil qilishgan. Shu tufayli 1867-yilda ikki polkdan iborat Yettisuv kazaklarining qo'shini tuzildi[3].

O'rta va kichik juzlarga mansub kazaklarning hududlariga rus qo'shinlari XIX asrning 40-yillarida o'z mavqeini mustahkamlashga erishganligi tufayli chegaraga yakin joylarda Sibir va Orenburg (Ural) kazaklarining stansiyalari barpo etilayotgan sharoitlarda bu hududlarda, biroz keyinroq Sirdaryoniig quyi qismida tuzilgan harbiy garnizonlar, istehkomlar atrofida rus aholining ham soni ko'payib bordi[4]. 1867-yil iyul oyida tuzilgan Turkiston general-gubernatorligida o'rnatilgan harbiy-ma'muriy boshqaruv tizimi va bu yerda 50 ming kishilik rus armiyasiniig joylashtirilishi, Xiva xonliklariga, Buxoro amirligiga qarshi jangovar harakatlar Rossiya imperiyasining mintaqadagi maqsadi – bu ulkan va boy o'lkani faqat talon taroj qilib yoki Rossiya imperiyasining faqat harbiy-siyosiy strategik hukmronligini o'rnatishgina emas, balki Turkistonni imperiya mulkiga aylantirish, xonliklarni esa butunlay yo'q qilish, agar buning iloji bo'lmay qolsa, protektorat, qaramlik shartlarini qabul qilishlariga majbur etish, butun mintaqa boyliklaridan, ishlab chiqarish kuchlarilan, salohiyatidan foydalanish ekanligini ko'rsatdi[5]. 1865-yil Turkiston viloyati, 1867-yil general-gubernatorligi tashkil qilinganligi Rossiya imperiyasi bu mintaqani rasman mustamlaka ahvoliga tushirib, imperiyaning strategik, iqtisodiy, ijtimoiy manfaatlariga xizmat qildirishga intila yotganini tasdiqladi.

Shuning uchun Rossiya imperiyasi bu mintaqada harbiy harakatlarini davom ettirgan xolda bu yerda rus qo'shnilariga va mustamlakachi ma'muriyatga tayanch bo'ladigan hamda o'lkaning boyliklarini metropoliyaga jo'natish bilan band, zarur bo'lsa mahalliy xalqlarning isyon, qo'zg'olonlarini bostirishga qo'shimcha kuch sifatida xizmat qiladigan rus va umuman sharqiy

[3] Зиёев Ҳ Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б. 187.
[4] Исхаков Ф. Националная политика царизма в Туркестане (1867-1917 гг)ю . –Ташкент ART FLEX, 2009 – С 90.
[5] Ғаффоров Ш. Тарих ва тақдир: Россия империясидан Туркистонга кўчирилганлар (XIX асрнинг иккинчи ярми - XX аср бошлари). – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 45.

slavyan nasroniy aholini ko‘proq joylashtirish tarafdori edi. Buni juda chuqur tushungan va kazaklar, asosan chegaralarga yaqin yerlarda yashashlari harbiy jihatdangina foydali deb hisoblagan general-gubernator K.F. Kaufman va Yettisuv viloyatining harbiy gubernatori general Kolpakovskiy 1868-yil Irtish daryosining yuqori qismidan Issiqko‘l havzasigacha chegara chizig‘i bo‘ylab kazaklarning stanitsalarini barpo etish masalasiga o‘zlarining salbiy munosabatlarini bildirishgan. K.P. Kaufmanning fikricha, kazaklar o‘lka zabt etilayotgan birinchi davrda chegaralarni qo‘riqlashda va qurolsiz mahalliy aholining noroziligini bostirishda foydali bo‘lishdi, keyin esa ular qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib berish bo‘yicha hamda yangi sharoitda harakat qila oladigan harbiy kuch sifatida talablarga javob bermas edi.

Shu munosabat bilan, masalan, general Kolpakovskiy: “Rus kazak aholisi mamlakat madaniyatini ancha olg‘a siljitmadi... Kazak vaqti-vaqtida harbiy xizmatga jalb etilayotgani sababli xo‘jalikni to‘g‘ri yurgizish imkoniyatiga ega emas. Dehqon mustamlakachiligi esa g‘aznadan uncha katta bo‘lmagan, kazaklarnikidan beqiyos kamroq harajatlarni va yer maydonini talab qiladi va shuning uchun bir xil hududda ikki-uch barobar ko‘proq aholini joylashtirish imkonini beradi”, – deb yozgan edi. Shu bilan birga Qo‘qon xonligining Uzunyog‘och, Oqmachit, Turkiston, Marki, Avliyoota, Chimkent, Toshkent kabi tayanch shaharlar rus qo‘shinlari tomonidan ishg‘ol qilinganidan keyin o‘lkaning ichki hududlariga kazaklarni ko‘chirib keltirishning xojati yo‘q edi[6]. Chorizmning o‘lkadagi siyosati bilan bevosita bog‘liq Xiva xonligi va Buxoro amirligi hududlarining katta qismini bosib olish hamda u yerda harbiy-ma’muriy boshqaruv tartibi masalasi tarixshunosligimizda, asosan, Amudaryo bo‘limini va 1881-yil Kaspiyorti viloyatini tashkil qilinishi bilan ta'riflanar edi. Aslida esa, 1874-yilda Mang‘ishloq va Krasnovodsk ma'muriy-hududiy tuzilmalardan iborat Kaspiyorti o‘lkasini boshqarish to‘g‘risida Muvaqqat Nizom imperator tomonidan tasdiqlangan edi”. Keyinrok Axal-Teka, Tejen, Ashxobod va Marv hududlarida bosib olingan Kaspiyorti viloyati tashkil qilindi (1881) va 1899-yilgacha Kavkaz noibligining tarkibida bo‘ldi.

Turkiston general-gubernatorligining tarkibiga o‘tkazilgunga qadar Kaspiyorti viloyatiga rus aholini ko‘chirish tartibi, joylashtirish shartlari biror qonun yoki nizomga ko‘ra emas, balki harbiy gubernator va uyezd boshliqlarining topshiriqlari, buyruqlari bilan belgilangan. Masalan, turkmanlarnnig yerlarida ruslar XIX asrning birinchi yarmida (1849) Aleksandrovsk portini va Nikolaevskoe nomli baliqchilar posyolkasini barpo etishgan[7]. XIX asrning 70-80-yillarida janglar natijasida ko‘pgina mahalliy aholi o‘zining yerlaridan yengib chiqarildi va bu yerlarda rus aholining qishloqlari birin-ketin tashkil etila boshladi. Bundan makonlar, asosan dehqonchnlnk uchun qulay hududlarda, xususan Ashxobod, Marv, Tejen uyezdlarida ko‘plab paydo bo‘ldi. Ular orasida eng yiriklari Garmob (Mixaylovskoe), Kozelskoe, Dmitrievskoe, Krestovoye, Aleksandrovka va bir qator qishloqlar edi. Viloyat ma'muriyati ko‘chib kelayotgan va qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan rus aholisini sug‘oriladigan hamda yaylov yerlari bilan, qoramol, ot-ulov sotib olish uchun ssuda bilan ta'minlashga jiddiy e'tibor berib turdi[8].

[6] Абдураҳимова Н. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Тошкент. Академия. 2002 – Б. 225.
[7] Аҳмаджонов Ғ. А. Россия империяси Марказий Осиёда. Тошкент – 2003. – Б. 112.
[8] Ғаффоров Ш. Тарих ва тақдир: Россия империясидан Туркистонга кўчирилганлар (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари). – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 51.

Bundan tashqari, Angliya va Rossiya o‘rtalarida tuzilgan konvensiyaga (1881) binoan, Sharqiy Eron Rossiya imperiyasi ta’sir zonasiga aylantirildi. Shundan foydalanib, Rossiya imperiyasi bu yangi qaram hududga ham bir necha ming rus va arman millatiga mansub shaxslarni ko‘chirishga kirishdi. Tashkiliy vazifalarni bajarish Sirdaryo ko‘chiruvchilik bo‘limiga topshirilgan edi. Kaspiyorti viloyatining 1892-yildan boshlig‘i bo‘lgan general-leytenant D. N. Kuropatkin Kaspiyorti harbiy temir yo‘lida ishlash uchun va viloyat hududida yashovchi turkman, qoraqalpoq o‘zbek dehqonlaridan, chorvadorlaridan tortib olingan yerlarda joylashib, xo‘jalik yuritishlari uchun ko‘plab rus aholini keltirishga katta ahamiyat bergan. Gap shundaki, Turkistonning boshqa viloyatlariga nisbatan bu viloyatda iqlim va yashash sharoitlari (jazirama, issiq qumli shamollar, suvsizlik, aholining mustamlakachilarga nafrati va h. k) ancha noqulay edi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, 1892-yilda Kaspiyorti viloyatida sodir bo‘lgan vabo epidemiyasi shaharlarda, baliqchilar posyolkalarida, temir yo‘l stansiyalarining yaqinida yashovchi rus aholisiga katta talofatlar yetkazdi. Bu haqda xabar topgan ruslar, kazaklar Kaspiyorti viloyatiga emas, balki Samarqand, Sirdaryo viloyatlariga, Amudaryo bo‘limiga qarashli hududga ko‘chishga harakat qilishgan edi. Kaspiyorti viloyatida general A. N. Kuropatkin boshliq bo‘lgan yillarda bir qator tashkiliy, moliyaviy, harbiy choralar va Krasnovodsk-Ashxobod-Samarqand temir yo‘li o‘tkazishi tufayli Rossiyadan va Kavkazdan aholini ko‘chirib keltirish, joylashtirish amaliyoti ancha kengaydi. Rus aholini joylashtirish uchun eng avval Ashxobod uyezdining hududi tanlandi va bu yerda yashovchi turkmanlarning aksariyati Sharqiy Eronga, Mari, Elatan uyezdlariga ko‘chishga majbur qilindi[9]. Ko‘chirib keltirilgan va o‘zicha ko‘chib kelgan ruslar XIX asrning 90-yillarida Kozelskoe (Vashyuvskiy), Kulkulab (Dmitrievka), Saratovskoe (1911-yildan Samsonovskoe), Kaltachinov (1896-yildan Kuropatkinskiy), Visokos (Obruchevskiy) qishloq selenielarinn tashkil qilishdi. Marv uyezdida, Afg‘oniston chegarasida, Kushka harbiy istehkomiga qo‘shni sifatida Alekseevskoe nomli katta selenie; Eron chegarasiga yaxshi bo‘lgan hududda ham shu yillarda Krestovoe (Tedjen uyezdi); Krasnovodsk uyezdida Petrovskiy, Aleksandrovka, Annenkovskiy, Nikolskiy, Mari uyezdida Poltavskoe nomli selenielar paydo bo‘ldi.

Bulardan tashqari, Turkiyadan kelgan deyarli 3 ming armani qochoqlar ham Kaspiyorti viloyatida, asosan, Ashxobod uyezdiga joylashtirildi. Natijada 1897-yilda bu viloyatda 4803 armani va 11 mingdan ko‘proq ruslar bor edi. Turkistonda tashkil etilgan viloyatlarga kazaklar yetarlicha ko‘chirilganligini, lekin ular o‘lkaning iqtisodiyotini metropoliyaning ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida rivojlantirishda faol qatnashishi mumkin emasligini hisobga olgan holda general-gubernator K. P. Kaufman 1868-yildayoq Turkistonga xo‘jalik jiha tidan baquvvat dehqonlarni ko‘chirish zarurligini asoslagan edi. Shu bilan birga yangi mustamlakada kapitalistik munosabatlarni yanada rivojlantirish, mahalliy mulkdorlarning, hunarmandlarning raqobatini bartaraf qilish, rossiyalik sarmoya dorlarning, savdogarlarning, geologlarning, muxandislarning, agronomlarning boshqa mutaxassislarning faoliyatini kengaytirish va o‘lkaning tabiiy boyliklarinn metropoliyaga olib ketish masalalari ham qo‘yilgan edi.

Xulosa. Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasidagi ko‘chirish siyosati yakunlarini tahlil qilar ekanmiz, ushbu jarayon mintaqa tarixida chuqur va asosan salbiy iz qoldirganini xulosa qilish mumkin. Bu siyosat ixtiyoriy migratsiya emas, balki imperiyaning siyosiy va iqtisodiy hukmronligini ta’minlashga xizmat qilgan sun’iy demografik loyiha edi.

Birinchidan, ko‘chirish siyosati Turkistonning asriy yer-suv munosabatlarini tubdan izdan chiqardi. “Bo‘sh yerlarni egallash” shiori ostida amalga oshirilgan islohotlar mahalliy aholining, ayniqsa ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi qabilalarning an’anaviy yaylovlaridan mahrum bo‘lishiga, o‘troq dehqonlarning esa eng unumdor yerlardan siqib chiqarilishiga olib keldi. Bu

[9] Самарқанд тарихи. 1–жилд. Мустамлака даврида Самарқанд. – Тошкент, 1991. – Б. 68.

holat mintaqada ijtimoiy tengsizlikni keltirib chiqardi va mahalliy xalqning iqtisodiy qaramligini kuchaytirdi.

Ikkinchinchidan, imperiya bu siyosat orqali o‘zining etnik va diniy tayanchini shakllantirishga erishdi. Biroq, bu sun’iy ravishda yaratilgan “rus qishloqlari” mahalliy muhit bilan integratsiyalashmadi, aksincha, mustamlaka ma’muriyati va tub aholi o‘rtasidagi ziddiyatli oraliq qatlam vazifasini o‘tadi. Bu ziddiyatlar keyinchalik 1916-yilgi milliy-ozodlik qo‘zg‘oloni kabi yirik fojialarning tub sabablaridan biri bo‘lib xizmat qildi.

Uchinchidan, ko‘chirish siyosati Turkistonning ekologik va iqtisodiy muvozanatiga putur yetkazdi. Dehqonchilikning yangi usullari va paxta yakkahokimligining kuchayishi mintaqaning tabiiy resurslaridan ayovsiz foydalanishga yo‘l ochdi.

Rossiya imperiyasining ko‘chirish siyosati Turkiston xalqlari uchun katta ijtimoiy va iqtisodiy talafotlar olib kelgan “ichki mustamlakachilik”ning klassik namunasidir. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, demografik jarayonlarning siyosiy maqsadlar yo‘lida majburiy o‘zgartirilishi uzoq muddatli etnik va ijtimoiy nizolarning poydevorini qo‘yadi. Bugungi kunda ushbu siyosatni o‘rganish, mustamlaka davri asoratlarini anglash va milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sodiqov H, Shamsutdinov R, Ravshanov P, Usmonov Q. Turkiston Chor Rossiyasimustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000.
2. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi vahukmronligiga qarshi kurash: (XVIII–XX asr boshlari)– T: Sharq, 1998.
3. Azamat Z. O‘zbek davlatchiligi tarixi: (Engqadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar) — T: Sharq, 2000.
4. Usmonov Q. O‘zbekiston tarixi: Oliy o‘quvyurtlari barcha bakalavr yo‘nalishlari uchun darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2006.